



OFFICE OF THE COMPLIANCE ADVISOR OMBUDSMAN (CAO)  
2121 PENNSYLVANIA AVENUE, NW • WASHINGTON, DC 20433, USA  
TELEPHONE +1 202-458-1973 • FACSIMILE +1 202-522-7400  
EMAIL: [CAO@WORLDBANKGROUP.ORG](mailto:CAO@WORLDBANKGROUP.ORG); WEB: [WWW.CAO-OMBUDSMAN.ORG](http://WWW.CAO-OMBUDSMAN.ORG)

## INSON HUQUQLARI HIMOYACHILARI, MEDIATSIYAGA OID GURUHINING (MG) A'ZOLARI BILAN HAMKORBANK VAKILLARI O'RTASIDAGI QO'SHMA YIG'ILISH NATIJALARI BO'YICHA BAYONNOMA.

2019 yilning 26 iyulida, Muvofiqlik maslahatchisi/Ombudsman (CAO) Apparati MGning inson huquqlari himoyachilari bilan Hamkorbank vakillari o'rtasidagi Toshkentdagi uchrashuvni tashkil qildi.

2016 yilning iyun oyida inson huquqlari himoyachilari CAOga Xalqaro moliya korporatsiyasining (IFC) O'zbekistondagi Indorama va Hamkorbank bilan bog'liq loyihalari yuzasidan shikoyat bilan murojaat qilishdi. 2019 yilning iyul oyidagi tegishli tomonlar o'rtaida bo'lib o'tgan uchrashuvi – muhokamalarning davomi bo'lib, unda IFC'ning Indorama va Hamkorbank loyihalarida va ularga tegishli ta'minot zanjirlarida majburiy mehnat yo'qligini ko'rsatish va ta'minlash uchun tegishli tomonlar birqalikda qanday ishlashi mumkinligiga e'tibor qaratildi.

MG'ning inson huquqlari himoyachilari bilan Hamkorbank vakillari o'rtasidagi uchrashuv muhim tadbir qatorida ot'di va e'tiborli bo'lgan tarafi shuki, tomonlar Doiraviy kelishuvni imzoladilar, bundan ko'zlangan maqsad, inson huquqlari himoyachilari tomonidan 2016-yil iyunidagi shikoyatda ko'tarilgan masalalarning yechimini topish maqsadida muloqot jarayonining asosiy qoidalarini belgilashdan iborat.

Ushbu tadbir natijasi inson huquqlari himoyachilari va biznes vakillari tomonidan majburiy mehnatga barham berishga qaratilgan qo'shma harakat bo'lib, ushbu birqalikdagi faoliyat natijasi O'zbekistondagi boshqa banklar uchun yorqin misol bo'lib, bu mamlakatdagi – paxta sektoridagi – vaziyatni ijobji tarafga o'zgartirishga hissa qo'shadi. Shuningdek, ushbu yig'ilishda Hamkorbank vakillari o'zlarining ijtimoiy va ekologik havf-hatarlarni baholash natijalari hamda shikoyatlar bilan shug'ullanuvchi bankdagi mavjud mehanizmlar bo'yicha taqdimotlarni namoyish etdilar. Uchrashuv ishtirokchilari tomonidan birqalikdagi harakatlar mexanizmlari ishlab chiqildi va tasdiqlandi.

Shuningdek, yig'ilish ishtirokchilari Buxoro shahridagi Hamkorbank filiali, bank xizmatlaridan foydalanuvchi nogironlar uchun eskalatorlar ornatganini va qulayliklar yaratganini, autizm bilan og'igan bolalarga yordam ko'rsatish dasturi borligini va bu nogironlarning bank ichkarisiga kirishdagi qiyinchiliklariga e'tibor qaratayotgan bank ekanligini ta'kidladilar.

Uchrashuv konstruktiv bo'lib, tomonlar birqalikdagi harakatlarni faol muhokama qildilar. Tomonlar muntazam muloqotni davom ettirishga kelishdilar. Doiraviy kelishuv imzolanganidan so'ng MG inson huquqlari himoyachilari va Hamkorbank vakillarining qo'l siquvlarini bilan rasmlar olindi.

---

### CAO haqida umumiylar:

*Muvofiqlik bo'yicha maslahatchi/ Ombudsman idorasi Juhon banki guruhidagi xususiy sector bilan ishlaydigan, - Xalqaro moliya korporatsiyasini (IFC) va Ko'p tomonlama investitsiyalarni kafolatlash agentligini (MIGA), - ijtimoiy javobgarlik bilan muvofiqligini ta'minlaydigan mustaqil tashkilotdir. CAO vakolathonasi to'g'ridan-to'g'ri Juhon banki guruhining Prezidentiga hisobot beradi va uning vazifasi IFC/MIGA tomonidan qo'llab-quvvatlangan loyihalari ta'sir ko'satadigan shaxslarning shikoyatlariga nisbatanadolatli, ob'ektiv va konstruktiv ishlarni amalgaloshirish va ushbu loyihalarining ijtimoiy va ekologik natijalarini yaxshilashga yordam berishdan iborat. Batafsil ma'lumotni CAO veb-saytida topishingiz mumkin: [www.cao-ombudsman.org](http://www.cao-ombudsman.org).*

